

<p><b>TASDIQLANGAN</b>  <b>«KORONA» MMT MChJ QK</b>  <b>Direktori U.N. Sabirovning</b>  <b>2025 yil «17» noyabr dagi</b>  <b>№83-П/2025-sonli Buyrug'i bilan</b></p>	<p><b>УТВЕРЖДЕНА</b>  <b>Приказом №83-П/2025</b>  <b>от 17 ноября 2025</b>  <b>Директор СП ООО МФО</b>  <b>«KORONA»</b>  <b>Сабиров У.Н.</b></p>
<p>Mikroqarzni taqdim qilish, undan foydalanish va uni qaytarish shartlari to'g'risida axborot</p>	<p>Информация об условиях предоставления, использования и возврата микрозайма</p>
<p>Mazkur Mikroqarzni taqdim qilish, undan foydalanish va uni qaytarish shartlari to'g'risida axborot (bundan buyon matnda – «Axborot») «KORONA» Mikromoliya tashkiloti Mas'uliyati cheklangan jamiyati Qo'shma korxonasiga (bundan buyon matnda – «Kreditor») tomonidan O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 20 apreldagi «Bankdan tashqari kredit tashkilotlari va mikromoliya faoliyat to'g'risida»gi O'zRQ-765-sonli Qonuniga, Moliya xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda mikromoliya tashkilotlari va lombardlar faoliyatiga minimal talablar to'g'risida Nizomga (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvi Qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 06 sentyabrda 3384-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) asosan ishlab chiqilgan.</p>	<p>Настоящая Информация об условиях предоставления, использования и возврата микрозайма (далее именуемая – Информация) разработана Совместным Предприятием Обществом с ограниченной ответственностью Микрофинансовая организация «KORONA» (далее именуемым – Кредитор) в соответствии Законом от 20.04.2022 № ЗРУ-765 «О небанковских кредитных организациях и микрофинансовой деятельности», Положением о минимальных требованиях к деятельности микрофинансовых организаций и ломбардов при осуществлении взаимодействия с потребителями финансовых услуг (утв. Постановлением Правления Центрального банка Республики Узбекистан, зарегистрировано Министерством юстиции Республики Узбекистан 06.09.2022, рег. № 3384).</p>
<p>Ushbu orqali Kreditor potentsial qarz oluvchini mikroqarzni olishga rozilik berishidan oldin qarz oluvchi quyidagi mavjud axborot tahlilini o'tkazishi kerakligi to'g'risida xabardor qiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– mikroqarz shartlari va miqdori, to'lov va hisob-kitoblar (foizlar, jarimalar va penyalar) tartibi, mikroqarz shartnomasi bo'yicha qarz oluvchi huquqlari va majburiyatlari, shartnoma bo'yicha ehtimoliy xavflar va javobgarlik, shuningdek qarz oluvchiga tushunarsiz</li> </ul>	<p>Настоящим Кредитор уведомляет потенциального заемщика о том, что прежде чем согласиться получить микрозаем, заемщику следует провести анализ имеющейся информации:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– условий и размера микрозайма, порядка оплаты и расчетов (процентов, штрафов и пени), прав и обязанностей заемщика по договору микрозайма, возможных рисков и ответственности по договору, а также других вопросов, которые заемщику не понятны. Заемщик имеет</li> </ul>

bo'lgan boshqa masalalar. Qarz oluvchi Kreditordan to'liq va bat afsil axborot olishga haqlidir.	право получить полную и подробную информацию от Кредитора.
Shikoyatlar mavjud bo'lgan holatda qarz oluvchi Axborotning 3-bandida qayd etilgan Kreditorning telefon raqami bo'yicha murojaat qilishi yoxud Axborotning 2-bandida yoki «Onlayn-o'tkazmalar» mobil ilovasidagi onlayn-chatda qayd etilgan Kreditorning pochta manzili bo'yicha o'z murojaatnomasini yuborishi mumkin (bunda, internet-do'konlarda ilovalar kartochkalari nomi bir-biridan farq qilishi mumkin, aynan esa, ilova nomi sifatida «Onlayn-o'tkazmalar» so'z birikmasi o'rniga «Korona» yoki «KoronaPay» so'zi ishlatalishi mumkin; «Onlayn-o'tkazmalar» / «Korona» / «KoronaPay» nomiga qo'shimcha so'zlar / jumlalar qo'shilishi mumkin) (bundan buyon matnda – «Mobil ilova»).	При наличии жалоб заемщик может обратиться по номеру телефона Кредитора, указанному в пункте 3 Информации, либо направить свое обращение по почтовому адресу Кредитора, указанному в пункте 2 Информации или в онлайн-чат в мобильном приложении «Онлайн-переводы» (при этом название карточки приложения в интернет-магазинах может различаться, а именно, вместо словосочетания «Онлайн-переводы» в качестве названия приложения может использоваться слово «Korona» или «KoronaPay»; к названию «Онлайн-переводы»/«Korona»/«KoronaPay» могут быть добавлены дополнительные слова/фразы) (далее – «Мобильное приложение»).
Mazkur hujjat Internet tarmog'ida <a href="https://korona.uz/">https://korona.uz/</a> manzili bo'yicha joylashtirilgan Kreditor saytida (bundan buyon matnda – «Sayt») va Mobil ilovada e'lon qilinadi hamda quyidagi axborotni o'z ichiga oladi:	Настоящий документ размещается в сети Интернет на сайте Кредитора, размещенном по адресу: <a href="https://korona.uz/">https://korona.uz/</a> (далее также – Сайт) и в Мобильном приложении и содержит следующую информацию:
<b>1. Kreditor nomi:</b>	<b>1. Наименование кредитора:</b>
«KORONA» Mikromoliya tashkiloti Mas'uliyati cheklangan jamiyati Qo'shma korxonasi («KORONA» MChJ QK MMT)	Совместное Предприятие Общество с ограниченной ответственностью Микрофинансовая организация (СП ООО МФО «KORONA»)
<b>2. Doimiy faoliyat yurituvchi ijroiya organ joylashgan manzil va pochta xat-xabarlarini yuborish uchun manzili</b>	<b>2. Место нахождения постоянно действующего исполнительного органа и адрес для направления почтовой корреспонденции.</b>
100007, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Parkent ko'chasi, 170-uy.	100007, Республика Узбекистан, г. Ташкент, Яшнабадский район, улица Паркент, дом 170

<b>3. Ish rejimi va aloqa bog'lash uchun telefon raqamlari</b>	<b>3. Режим работы и контактный телефон</b>
Dushanba-juma kunlari, soat 09:00-21:00, Shanba, yakshanba – dam olish kunlari. Mikroqarz ajratish bo'yicha arizalarni qabul qilish va ko'rib chiqish tun-u kun, dam olish kunlarisiz amalga oshiriladi. Aloqa bog'lash uchun telefon raqamlari: 1389 dam olish kunlarisiz, 9:00 до 21:00	Пн-Пт 09:00-18:00, Сб, Вс – выходной. Прием и рассмотрение заявлений на предоставление микрозайма – круглосуточно, без выходных. Контактный номер телефона: 1389 ежедневно, 9:00 до 21:00
<b>4. Rasmiy sayt</b>	<b>4. Официальный сайт</b>
<a href="http://www.korona.uz">www.korona.uz</a>	<a href="http://www.korona.uz">www.korona.uz</a>
<b>5. Mikromoliya tashkilotlari reestriga kreditor haqida ma'lumotlar kiritilishi to'g'risida axborot</b>	<b>5. Информация о внесении сведений о кредиторе в реестр микрофинансовых организаций</b>
Qaydnama raqami: № 73 21.12.2019 y.	Номер записи: № 73 от 21.12.2019 г.
<b>6. Mikroqarzlar taqdim qilinishi amalga oshiriladigan hudud va mikroqarzlarni taqdim qilish usuli</b>	<b>6. Территория, на которой осуществляется предоставление микрозаймов и способ предоставления</b>
Kreditor O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun Mikroqarz shartnomasini imzolash va (yoki) tuzish paytida joylashgan manzillaridan qat'i nazar mikroqarzlarni taqdim qilish bo'yicha moliya xizmatlarini ko'rsatadi. Mikroqarz shartnomasini rasmiylashtirish va mikroqarzni taqdim qilish (Kreditor tomonidan xizmatlar ko'rsatilishi) faqat masofaviy (Mobil ilovada onlayn) xizmat ko'rsatish tizimidan foydalaniłgan holda amalga oshiriladi.	Кредитор оказывает финансовые услуги по предоставлению микрозаймов для граждан Республики Узбекистан независимо от их места нахождения в момент подписания и (или) заключения Договора микрозайма. Оформление договора микрозайма и предоставление микрозайма (оказание услуг Кредитором) осуществляется исключительно с использованием системы дистанционного обслуживания (онлайн в Мобильном приложении).
<b>7. Qarz oluvchilarga mikroqarz taqdim qilinishi uchun bajarilishi shart bo'lgan talablar</b>	<b>7. Требования к заемщикам, выполнение которых является обязательным для предоставления микрозайма</b>
Qarz oluvchiga talablar:	Требования к заемщику:

<ul style="list-style-type: none"> <li>– to’liq yuridik salohiyatli bo’lish;</li> <li>– 18 yoshdan 65 yoshgacha;</li> <li>– O’zbekiston Respublikasi fuqaroligi;</li> <li>– amaldagi hujjat bo’lishi: O’zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti yoki O’zbekiston Respublikasi ID-kartasi;</li> <li>– milliy to’lov tizimi bank kartasi bo’lishi.</li> </ul> <p>Kreditor potentsial qarz oluvchi qayd etilgan talablarga javob bergan, biroq uning mikroqarz shartnomasini bajarish imkoniyatlariga asoslangan shubha-gumonlar yuzaga kelgan holatda, mikroqarz shartnomasini tuzmaslikka haqli.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– полная дееспособность;</li> <li>– возраст с 18 лет до 65 лет;</li> <li>– гражданство Республики Узбекистан;</li> <li>– наличие действующего документа: биометрический паспорт гражданина Республики Узбекистан или ID-карта Республики Узбекистан;</li> <li>– наличие банковской карты национальной платежной системы.</li> </ul> <p>Кредитор вправе не заключать договор микрозайма при соответствии потенциального заемщика указанным требованиям в случае возникновения мотивированных сомнений в возможности исполнения им договора микрозайма.</p>
<b>8. Qarz oluvchining mikroqarz taqdim qilinishi to’g’risida rasmiylashtirilgan arizasini ko’rib chiqish va ushbu ariza yuzasidan qaror qabul qilish muddatlari</b>	<b>8. Сроки рассмотрения оформленного заемщиков заявления о предоставлении микрозайма и принятия решения относительно этого заявления</b>
<p>Kreditor tomonidan ariza olingan paytdan e’tiboran eng ko’pi bilan 48 soatni tashkil etadi.</p> <p>Hujjatlarni qo’shimcha tekshirish zarur hollarda va (yoki) ishdagi texnik to’xtalishlarda Kreditorning xohish-istagiga qarab, mikroqarz taqdim qilinishi to’g’risida arizani ko’rib chiqish muddati Kreditor tomonidan bir tomonlama tartibda, biroq 3 (uch) ish kunidan ko’p bo’lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.</p>	<p>Не более 48 часов с момента получения заявления Кредитором.</p> <p>В случае необходимости дополнительной проверки документов и (или) технических сбоев в работе, по усмотрению Кредитора срок рассмотрения заявления о предоставлении микрозайма может быть увеличен Кредитором в одностороннем порядке, но не более чем на 3 (три) рабочих дня.</p>
<b>9. Taqdim qilinadigan mikroqarz turi</b>	<b>9. Вид предоставляемого микрозайма</b>
Ta’minotsiz aniq maqsadsiz mikroqarz.	Нецелевой микрозаем без обеспечения.
<b>10. Taqdim qilinadigan mikroqarz summasi/ Mikroqarzni qaytarish muddati/ Mikroqarz summasiga hisoblab yoziladigan yillik foizlarda foiz stavkasi/ Mikroqarzdan foydalanilganlik uchun foizlar hisoblab yozilishi boshlanadigan</b>	<b>10. Сумма предоставляемого микрозайма/ Срок возврата микрозайма/ Процентная ставка в процентах годовых, начисляемая на сумму микрозайма/ Дата, начиная с которой начисляются проценты за</b>

<b>sana yoki uni belgilash tartibi/ Mikroqarzning to'liq qiymati</b>	<b>пользование микрозайма, или порядок её определения/ Полная стоимость микрозайма</b>
Axborotga ilovada belgilangan.	Указано в приложении к Информации.
<b>11. Mikroqarz taqdim qilinadigan valyuta</b>	<b>11. Валюта предоставляемого микрозайма</b>
O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm.	Узбекский сум.
<b>12. Mikroqarzni taqdim qilish usuli</b>	<b>12. Способ предоставления микрозайма</b>
Mikroqarz qarz oluvchi tomonidan qayd etilgan/tanlangan bank kartasiga pul mablag'larini (mikroqarz summasini) o'tkazma qilish orqali masofaviy taqdim qilinadi.  Kreditor O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarda bank kartasiga mikroqarz olish huquqini cheklashi mumkin.	Mикрозаем предоставляется дистанционно, посредством перевода денежных средств (сумма микрозайма) на банковскую карту, указанную/выбранную заемщиком.  Кредитор может ограничить право на получение микрозайма на банковскую карту при наличии на то оснований, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан.
<b>13. Mikroqarzni qaytarishda, undan foydalilanilganlik uchun foizlarni va mikroqarz bo'yicha boshqa foizlarni to'lashda qarz oluvchi to'lovlarining davriyligi</b>	<b>13. Периодичность платежей заемщика при возврате микрозайма, уплате процентов и иных платежей по микрозайму</b>
Mikroqarzni so'ndirish va undan foydalilanilganlik uchun foizlarni to'lash qarz oluvchi tomonidan har oylik annuitet to'lovlar bilan amalga oshiriladi. To'lovlar miqdori va davriyligi (sanalari) To'lovlar jadvalida qayd etiladi, ushbu jadval mikroqarz shartnomasining Individual shartlariga ilova hisoblanadi.  Qarz oluvchi mikroqarz amalda qaytarilgan kungacha hisoblab yozilgan mikroqarzdan foydalilanilganlik uchun foizlarni to'lagan holda mikroqarz to'liq summasini	Погашение микрозайма и уплата процентов за пользование осуществляется заемщиком ежемесячными аннуитетными платежами. Размер и периодичность (даты) платежей указываются в Графике платежей, который является приложением к Индивидуальным условиям договора микрозайма.  Заемщик вправе вернуть полную сумму микрозайма в любой день досрочно, полностью уплатив проценты за пользование микрозаймом, начисленные до дня его фактического возврата.

<p>istalgan kun muddatidan oldin qaytarishga haqli.</p> <p>Mikroqarzni qisman muddatidan oldin qaytarish (oldindan xabardor qilinmagan holda va oldindan xabardor qilingan holda) Qarz oluvchi tomonidan Mikroqarz shartnomasida belgilangan shartlarga (umumiylashtirilgan shartlarga) asosan amalga oshiriladi.</p>	<p>Частичный досрочный возврат (без предварительного уведомления и с предварительным уведомлением) микрозайма осуществляется Заемщиком в соответствии с условиями, установленными Договором микрозайма (общими и индивидуальными условиями).</p>
<p><b>14. Qarz oluvchi tomonidan mikroqarz qaytarilishi, uning bo'yicha foizlar to'lovi usullari</b></p>	<p><b>14. Способы возврата заемщиком микрозайма, уплаты процентов по нему</b></p>
<ul style="list-style-type: none"> <li>– Mobil ilova shaxsiy kabinetida bank kartasidan (uning rekvizitlaridan) foydalanilgan holda to'lojni amalga oshirish orqali (komissiya haqi olinishi mumkin);</li> <li>– Kreditor rekvizitlari bo'yicha pul mablag'larini o'tkazma qilish orqali (komissiya haqi olinishi mumkin);</li> <li>– qarz oluvchi tomonidan to'lov muddati kechiktirilgan qarz yuzaga kelishiga yo'l qo'yilgan holatda, bank kartasidan (uning rekvizitlaridan) pul mablag'larini mikroqarz shartnomasi bo'yicha to'lov muddati kechiktirilgan qarzni so'ndirish hisobvarag'iga aktseptsiz chegirib olish orqali (komissiya haqi olinishi mumkin).</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– путем совершения платежа с использованием банковской карты (ее реквизитов) в личном кабинете Мобильного приложения (возможно взимание комиссии);</li> <li>– путем перечисления денежных средств по реквизитам Кредитора (возможно взимание комиссии);</li> <li>– путем безакцептного списания денежных средств с банковской карты (ее реквизитов) в счет погашения просроченной задолженности по договору микрозайма, в случае если заемщиком допущено ее возникновение (возможно взимание комиссии).</li> </ul>
<p><b>15. Qarz oluvchi mikroqarz olishni rad qilishga haqli bo'ladigan muddatlar</b></p>	<p><b>15. Сроки, в течение которых заемщик вправе отказаться от получения микрозайма</b></p>
<p>Qarz oluvchi Kreditorni mikroqarz olingungacha istalgan vaqtida xabardor qilgan holda mikroqarz olishni rad qilishga haqli.</p> <p>Mikroqarzlarni taqdim qilish qoidalarida belgilangan muddatlarda qarz oluvchiga mikroqarz uchun murojaat qilish imkoniyati berilganidan so'ng qarz oluvchi tomonidan mikroqarz uchun murojaat qilinmagan holatda, qarz oluvchi mikroqarz olishni rad qilgan hisoblanadi.</p>	<p>Заемщик вправе отказаться от получения микрозайма, уведомив об этом Кредитора в любое время до получения микрозайма</p> <p>В случае отсутствия обращения со стороны заемщика за микрозаймом в сроки, установленные в Правилах предоставления микрозаймов, после предоставления заемщику возможности такого обращения, заемщик считается отказавшимся от получения микрозайма.</p>

<b>16. Mikroqarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlar ijrosini ta'minlash turlari</b>	<b>16. Виды обеспечения исполнения обязательств по договору микрозайма</b>
Yo'q.	Отсутствуют.
<b>17. Qarz oluvchining mikroqarz shartnomasi tegishlicha bajarilmaganligi uchun javobgarligi, neustoyka (jarima, penya) miqdori yoki uni belgilash tartibi</b>	<b>17. Ответственность заемщика за ненадлежащее исполнения договора микрозайма, размеры неустойки (штрафа, пени), порядок ее определения</b>
Axborotga ilovada belgilangan.	Указано в приложении к Информации.
<b>18. Qarz oluvchi tuzishi shart bo'lган boshqa shartnomalar to'g'risida axborot, shuningdek qarz oluvchining bunday shartnomalarni tuzishga rozilik berish yoki ularni rad qilish imkoniyatlari to'g'risida axborot</b>	<b>18. Информация об иных договорах, которые заемщик обязан заключить, а также информация о возможности заемщика согласиться с заключением таких договоров либо отказаться от них</b>
<p>Qarz oluvchi tomonidan mikroqarz taqdim qilinishi uchun ariza, mikroqarz shartnomasining individual shartlari va boshqa hujjatlar shaxsning o'z qo'lli bilan qo'yilgan imzosi analogi shaklida elektron imzodan foydalananilgan holda imzolanishi, shuningdek mikroqarz shartnomasini tuzishda, o'zgartirishda, bajarishda va bekor qilishda Kreditor va qarz oluvchi o'rtasida elektron hujjatlar almashinuvi imkoniyatlari ta'minlanishi uchun qarz oluvchi Kreditor bilan Himoyalangan hujjat aylanishini tashkillashtirish to'g'risida Bitimga qo'shilish orqali ushbu qayd etilgan Bitimni tuzadi.</p> <p>Qarz oluvchining ushbu Bitimga qo'shilishi mikroqarz shartnomasini tuzish uchun kerakli shart hisoblanadi va uning uchun hech qanday qo'shimcha pul majburiyatlariga olib kelmaydi.</p>	<p>Для подписания заемщиком заявления на предоставление микрозайма, индивидуальных условий договора микрозайма и иных документов, с использованием электронной подписи в виде аналога собственноручной подписи, а также обеспечения возможности обмена электронными документами между Кредитором и заемщиком при заключении, изменении, исполнении или расторжении договора микрозайма заемщик заключает с Кредитором Соглашение об организации защищенного документооборота путем присоединения к указанному Соглашению.</p> <p>Присоединение заемщика к данному Соглашению является необходимым условием для заключения договора микрозайма и не влечет для него возникновения каких-либо дополнительных денежных обязательств.</p>
<b>19. Mikroqarz shartnomasi bo'yicha huquqlar (talablar)ning kreditor tomonidan uchinchi shaxslarga voz kechilishi imkoniyati to'g'risida axborot</b>	<b>19. Информация о возможности уступки кредитором третьим лицам прав (требований) по договору микрозайма</b>

Kreditor mikroqarz shartnomasi bo'yicha huquqlar (talablar)ning uchinchi shaxslarga voz kechilishini amalga oshirishga haqli.	Кредитор вправе осуществлять уступку третьим лицам прав (требований) по договору микрозайма.
<b>20. Nizolarni sud tartibida hal qilish</b>	<b>20. Разрешение споров в судебном порядке</b>
Mikroqarz shartnomasini bajarishda yuzaga keladigan va ixtiyoriy tartibda hal qilinmagan barcha nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asosan hal qilinadi.	Все споры и разногласия, возникающие при исполнении договора микрозайма и не урегулированные в добровольном порядке решаются в соответствии законодательством Республики Узбекистан.
<b>21. Mikroqarz shartnomasining umumiyligi shartlari belgilangan formulyarlar yoki boshqa standart namunalar</b>	<b>21. Формуляры или иные стандартные формы, в которых определены общие условия договора микрозайма</b>
Kreditor tomonidan taqdim qilingan mikroqarz shartnomasining umumiyligi shartlari Kreditor Saytida va Mobil ilova shaxsiy kabinetida joylashtirilgan	Общие условия договора микрозайма, предоставляемого Кредитором, размещены на Сайте Кредитора и в личном кабинете Мобильного приложения.
<b>22. Kreditorning moliya xizmatlari va qo'shimcha xizmatlari, shu jumladan qo'shimcha haq uchun ko'rsatiladigan xizmatlari to'g'risida axborot</b>	<b>22. Информация о финансовых услугах и дополнительных услугах кредитора, в том числе оказываемых за дополнительную плату</b>
Kreditor jismoniy shaxslarga mikroqarzlar taqdim qilish bo'yicha moliya xizmatlarini ko'rsatadi.  Kreditorning qo'shimcha xizmatlari, shu jumladan qo'shimcha haq uchun ko'rsatiladigan xizmatlari yo'q.	Кредитор оказывает финансовые услуги по предоставлению микрозаймов физическим лицам.  Дополнительные услуги Кредитора, в том числе оказываемые за дополнительную плату, отсутствуют.
<b>23. Qarz oluvchi tomonidan mikroqarz shartnomasi tuzilishi va uning shartlari ijrosi bilan bog'liq xavf-xatarlar hamda mikroqarz shartnomasini tuzishda ehtimoliy salbiy moliyaviy oqibatlar (mikroqarz shartnomasi bilan bog'liq ehtimoliy qo'shimcha xarajatlar) to'g'risida axborot</b>	<b>23. Информация о рисках, связанных с заключением и исполнением заемщиком условий договора микрозайма, и возможных негативных финансовых последствиях при заключении договора микрозайма (возможных дополнительных расходах, связанных с договором микрозаймом)</b>

Qarz oluvchi tomonidan mikroqarz shartnomasini tuzish paytida o'z to'lov qobiliyatiga ortiqcha baho berilishi mikroqarzni qaytarish bo'yicha to'lov muddati kechiktirilishiga va qarz oluvchining kredit tarixi yomonlashishiga (kredit byurosiga to'lov muddati kechiktirilganligi to'g'risida, sud qarorlari to'g'risida ma'lumotlar uzatilishiga) olib kelishi mumkin, bu kelgusida boshqa qarzlar va kreditlar olish imkoniyatini cheklashi mumkin.

Mikroqarzni qaytarish bo'yicha to'lov muddati kechiktirilishi yuzaga kelgan holatda Kreditor Axborotga ilovada belgilangan ma'lumotlarga asosan mikroqarz shartnomasi shartlari tegishlicha bajarilmaganligi uchun qarz oluvchiga neustoyka qo'llashga haqli, shuningdek to'lov muddati kechiktirilgan summani tashkil qiladigan pul mablag'lari qarz oluvchining bank hisobvaraqlaridan (bank kartalaridan) komissiya haqi to'langan holda aktseptsiz chegirib olinishi mumkin.

Shuningdek, mikroqarz shartnomasida belgilangan muddatda mikroqarzni qaytarish bo'yicha majburiyatlar qarz oluvchi tomonidan bajarilmagan yoki tegishlicha bajarilmagan holatda, mikroqarzdan foydalanilganlik uchun foizlar shaklida qarz oluvchi xarajatlari summasi kutilgan xarajatlar summasiga nisbatan oshishi mumkin, ushbu foizlar hisoblab yozilishi mikroqarz to'liq qaytariladigan sanagacha, shu jumladan to'lov muddati kechiktirilgan davrda ham amalga oshirilishi mumkin, bu esa qarz yuklamasini ko'paytiradi.

Qarz oluvchidan sud tartibida qarz undirilganida Kreditor tomonidan to'langan davlat boji va boshqa sud xarajatlari ham undirib olinadi.

Qarz oluvchi tomonidan mikroqarzni qaytarish bo'yicha majburiyatlar bajarilgan holatda komissiya haqi olinishi mumkin.

Переоценка заемщиком своей платежеспособности на момент заключения договора микрозайма может повлечь за собой просрочку платежа по возврату микрозайма и ухудшение кредитной истории заемщика (передача в кредитное бюро сведений о просрочке платежей, о судебных решениях), что может ограничить возможность получения других займов и кредитов в будущем.

При возникновении просрочки платежа по возврату микрозайма Кредитор вправе применить к заемщику неустойку за ненадлежащее исполнение условий договора микрозайма в соответствии с информацией, указанной в приложении к Информации, а также денежные средства, составляющие сумму просрочки, могут быть безакцептно списаны с банковских счетов (банковских карт) заемщика и с уплатой комиссии.

Также увеличение суммы расходов заемщика, по сравнению с ожидаемой суммой расходов, возможно при неисполнении или ненадлежащем исполнении заемщиком обязательств по возврату микрозайма в установленный договором срок, в виде процентов за пользование микрозаймом, начисление которых может производится вплоть до даты окончательного возврата микрозайма, в том числе и в период просрочки, что увеличит долговую нагрузку.

При взыскании задолженности в судебном порядке с заемщика взыскивается также уплаченная Кредитором государственная пошлина и прочие судебные расходы.

При исполнении заемщиком обязательств по возврату микрозайма возможно взимание комиссии.

<p><b>24. Qarz yuklamasi ko'rsatkichi (MQY – maksimal qarz yuki) hisob-kitobi haqida ma'lumot.</b></p>	<p><b>24. Информация о расчете показателя долговой нагрузки (ПДН) заемщика.</b></p>
<p>Kreditor mikromoliya ajratish to'g'risida qaror qabul qilayotganda, mikromoliyaga ariza topshirgan shaxs bo'yicha qarz yuklamasi ko'rsatkichi (MQY) ni hisoblaydi. Agar hisob-kitob natijasida MQY 50%dan yuqori bo'lsa, Kreditor bu shaxsga mikromoliya berishni rad etadi. Shu bilan birga, agar mikromoliya miqdori va ariza beruvchining amaldagi kredit (mikromoliya) shartnomalari bo'yicha asosiy qarz qoldig'i yig'indisi 50 baravar bazaviy hisoblash miqdoridan oshmasa, Kreditor MQYni hisoblamasligi yoki qaror qabul qilishda uni inobatga olmasligi mumkin.</p>	<p>При принятии Кредитором решения о предоставлении микрозайма Кредитор рассчитывает в отношении лица, подавшего заявление на микрозаем, показатель долговой нагрузки (ПДН). Если оцененный таким образом ПДН окажется выше 50%, Кредитор отказывает в предоставлении микрозайма лицу.</p> <p>При этом расчет ПДН может не производиться Кредитором или не приниматься во внимание при принятии Кредитором решения о предоставлении микрозайма лицу, если сумма микрозайма и совокупность остатка основного долга по действующим договорам кредита (микрозайма) этого лица не превышает 50-кратную базовую расчетную величину.</p>
<p><b>25. Moliya xizmatlarini oluvchi (qarz oluvchi) huquqlarini himoya qilish usullari to'g'risida axborot, shu jumladan nizolarni sudgacha hal qilish imkoniyati va usullari to'g'risida axborot, shuningdek mediatsiya tartib-taomili to'g'risida axborot (moliya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnomalarda tegishli shartlar belgilangan holatda)</b></p>	<p><b>25. Информация о способах защиты прав получателя финансовой услуги (заемщика), включая информацию о наличии возможности и способах досудебного урегулирования спора, в том числе о процедуре медиации (при наличии соответствующего условия в договорах об оказании финансовых услуг).</b></p>
<p>Qarz oluvchi qonunda nazarda tutilgan barcha usullar yordamida, shu jumladan sud tartibida o'z huquqlarini himoya qilishga haqli.</p> <p>Mikroqarz shartnomasi bo'yicha to'lov muddati kechiktirilgan qarz yuzaga kelgan holatda, qarz oluvchi quyidagilarga haqli (shu jumladan, biroq cheklanmagan holda):</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ixtiyoriy tartibda qarzni so'ndirish;</li> <li>– o'z qarzi miqdori va uning tarkibi to'g'risida axborot, to'lov muddati kechiktirilgan qarzni so'ndirish</li> </ul>	<p>Заемщик вправе защищать свои права всеми предусмотренными законом способами, в том числе в судебном порядке.</p> <p>В случае возникновения по договору микрозайма просроченной задолженности заемщик вправе (включая, но не ограничиваясь):</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– в добровольном порядке погасить задолженность;</li> <li>– получить информацию о размере и структуре его задолженности, о сроках,</li> </ul>

<p>muddatlari, tartibi va usullari to'g'risida axborot olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Kreditor harakatlari bo'yicha shikoyatga javob olish (ushbu shikoyat qarz oluvchi tomonidan murojaatnoma shaklida yuborilgan holatda).</li> </ul> <p>Qarz oluvchining tashabbusiga binoan nizoni sudgacha hal qilish Kreditor manziliga tegishli murojaatnoma yuborish orqali amalga oshirilishi mumkin.</p>	<p>порядке и способах погашения просроченной задолженности;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- получить ответ на претензию по действиям Кредитора (в случае ее направления заемщиком в виде обращения).</li> </ul> <p>Досудебное урегулирование спора по инициативе заемщика может производиться путем направления соответствующего обращения по адресу Кредитора.</p>
<p><i>Axborot amaldagi qonun hujjatlari talablariga asosan Kreditor va uning mikromoliya faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish maqsadida cheklanmagan shaxslar doirasi uchun mo'ljallangan. Mazkur hujjat axborot xususiyatiga ega hamda ommaviy oferta va oferta qilish taklifi hisoblanmaydi.</i></p> <p><i>Kreditor tomonidan tuziladigan Mikroqarz shartnomasining Individual shartlari mazkur hujjatning ushbu tahriri amal qiladigan butun muddat mobaynida Axborotga javob beradi.</i></p>	<p><i>Информация предназначена для неограниченного круга лиц в целях раскрытия информации о Кредиторе и микрофинансовой деятельности Кредитора в соответствии с требованиями действующего законодательства. Настоящий документ носит информационный характер и не является публичной офертой, приглашением делать оферты.</i></p> <p><i>Общие и индивидуальные условия договора микрозайма, заключаемые Кредитором, соответствуют информации в течение всего срока действия данной редакции настоящего документа.</i></p>

Mikroqarzni taqdim qilish, undan foydalanish va uni qaytarish shartlari to'g'risida axborotga ilova

**KREDITOR TOMONIDAN TAQDIM QILINADIGAN MIKROQARZ SHARTLARI**

Mikroqarz summasi, so'mda	Mikroqarz muddati	Mikroqarz shartnomasi bo'yicha majburiyatlar tegishlich bajarilmagan holatda hisoblab yoziladigan neustoyka miqdori	Mikroqarz summasiga hisoblab yoziladigan foiz stavkasi miqdori, yillik % (foizlarda)	Mikroqarzdan foydalanganlik uchun foizlar hisoblab yozilishi boshlanadigan sana	Mikroqarzning to'liq qiymati, yillik % (foizlarda)	Mikroqarzni taqdim qilish alohida shartlari
500 000, 1 000 000, 2 000 000, 3 000 000, 4 000 000	3 (uch) oy (to'lov davri)	Yillik 20%	35,95%/109,5%	Mikroqarzdan foydalanganlik uchun foizlar mikroqarz summasi qarz oluvchining bank kartasiga o'tkazma qilingan sanadan e'tiboran hisoblab yoziladi.	35,95%/109,5%	Qarz oluvchi foydalanishi mumkin bo'lgan qarz shartlari Kreditorning alohida taklifi bo'yicha belgilanishi mumkin.  Mikroqarzlar faqat Mobil ilovada (masofaviy) rasmiylashtirilishi mumkin.

Приложение к Информации об условиях предоставления,  
использования и возврата микрозайма

**УСЛОВИЯ МИКРОЗАЙМА,  
ПРЕДОСТАВЛЯЕМОГО КРЕДИТОРОМ**

<b>Сумма микрозайма, в суммах</b>	<b>Срок микрозайма</b>	<b>Размер неустойки, начисляемой в случае ненадлежащего исполнения обязательств по договору микрозайма</b>	<b>Размер процентной ставки, начисляемой на сумму микрозайма, в % (процентах) годовых</b>	<b>Дата, начиная с которой начисляются проценты за пользование микрозаймом</b>	<b>Полная стоимость микрозайма, в % (процентах) годовых</b>	<b>Особые условия предоставления микрозайма</b>
500 000, 1 000 000, 2 000 000, 3 000 000, 4 000 000	3 (три) месяца (платежных периода)	20% годовых	35,95%/109,5%	Проценты за пользование микрозаймом начисляются с даты, когда сумма микрозайма перечислена на банковскую карту заемщика.	35,95%/109,5%	Условия займа, доступные заемщику, могут определяться по индивидуальному предложению Кредитора.  Микрозаймы доступны для оформления только в Мобильном приложении (дистанционно).